

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY
MARKAZI**

**HAMKORLIKDA ISHLASH TEXNIKASIDAN FOYDALANISHDA
DIDAKTIK VOSITALARNI
TAYYORLASH**

(umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan
uslubiy ko'rsatma)

Samarqand-2020

J.Oripov. Hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanishda didaktik vositalarni tayyorlash. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari uchun mo'ljallangan uslubiy ko'rsatma. -Samarqand, 2020, 20 bet.

Taqrizchilar:

A. Samadov –SamDU dotsenti

M. Fayziyeva – Sam VXTXQTMOHM
o'qituvchisi

Ushbu uslubiy ko'rsatmada hamkorlikda ishlash texnikasi, didaktik vositalar tushunchalari, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining o'qitish jarayonidagi afzalliklari, hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanishda didaktik vositalarni tayyorlash tartiblari va uning samaradorlik darajalari nazariy asosda yoritib berilgan.

Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy-metodik kengash yig'ilishining navbatdagi 2020-yil 26-dekabrdagii 9-sonli qaror bilan tasdiqlangan.

KIRISH

Respublikamizda ta'lim sohasiga innovatsion texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini joriy etilayotganligi, o'quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ijodiy tafakkurini shakllanishiga xizmat qiladigan yangicha yondashuvni vujudga keltirdi. O'quvchi yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ta'lim tizimining ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Shuning uchun, ta'lim tizimining moddiy-texnik ba'zasini boyitish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlashni davrning o'zi taqoza etmoqda.

O'quvchilarning fan asoslarini egallashga bo'lgan qiziqishlarini ortirish, intellektual salohiyatini yuksaltirish va ijodiy tafakkurini shakllantirish masalasini ijobiy hal etish, o'qitish jarayoniga zamon talablari asosidagi yangicha yondashuvni vujudga keltirdi. Aniqroq aytganda, ta'limda hamkorlikda ishlash texnikasining keng joriy etish va yangi zamon talablari asosida didaktik vositalarni tayyorlash hamda ulardan o'qitish jarayonida foydalanish imkoniyatini yaratdi.

O'qitish jarayonida o'qituvchi-pedagoglarning hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanishda didaktik vositalarni tayyorlash borasidagi bilim va malakalarini muntazam oshirib borishini talab etadi. Bunda o'qituvchi-pedagoglarga hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanishda didaktik vositalarni tayyorlash usullari, tartiblari va xususiyatlarini batafsil yoritib beruvchi uslubiy ishlar, qo'llanmalar, ko'rsatmalarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib ushbu uslubiy ko'rsatmada, ta'limda hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanish asosida bugungi zamon talablari asosida didaktik vositalarni tayyorlash tartiblari, hamkorlik texnikasining ahamiyati, o'qitish jarayonida hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanishda didaktik vositalarni tayyorlashning muhim jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari, "hamkorlik ishlash texnikasi", "didaktik vositalar" va "didaktik materiallar" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati borasidagi fikr-mulohazalar asosida yoritib berilgan.

HAMKORLIKDA ISHLASH TEXNIKASIDAN FOYDALANISHDA DIDAKTIK VOSITALARNI TAYYORLASH

Uslubiy ko'rsatmada o'rganilayotgan masalalar:

1. Hamkorlikda ishlash texnikasi va didaktik vositalar tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Hamkorlikda ishlash texnikasining afzalliklari va o'ziga xos jihatlari.
3. Hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanishda didaktik vositalarni tayyorlash tartiblari.

1. Hamkorlikda ishlash texnikasi va didaktik vositalar tushunchasining mazmun-mohiyati.

O'zbekistonda ta'lim sohasini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib sohaga joriy etilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmonida xalq ta'limi tizimidagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish, xalq ta'limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklarning mavjudligi va ularni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida xalq ta'limi tizimiga zamonaviy innovatsion texnologiya va xorijiy tajribalarni joriy etish, sohani 2030-yilgacha rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmonida: "Xalq ta'limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi",-

deb ta'kidlangan¹.

Ta'lim tizimining yanada samaradorligini oshirishning muhim jihatlaridan biri, sohaga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'limning innovatsion shakllarini joriy etishdir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan imzolangan ushbu farmonda ta'lim tizimiga, ayniqsa xalq ta'limi tizimni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llash zarur ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar qanchalik jadallashib borayotgan bo'lsa, ta'lim sohasiga ham innovatsiya va xorijiy tajribalarning joriy etish ham shu qadar tezliki bu bevosita mamlakatimizda ta'lim tizimiga ham o'zining ta'sirini o'tkazayotganligi sir emas. Shuning uchun ham sohaga innovatsion texnologiya va interfaol usullarni qo'llash hamda hamkorlikda ishlash texnologiyasi asosida o'qitish jarayonlarini tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'tgan yillar davomida respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilishning mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik ba'zasi yaratilganligi, zamonaviy ta'limga xizmat qiladigan innovatsion texnologiyalar, o'qitishning interfaol usullarini joriy etish imkoniyatini yaratdi. O'quvchilarning fan asoslarini egallashga bo'lgan qiziqishlarini ortirish, intellektual salohiyatini yuksaltirish, ijodiy tafakkurini shakllantirish masalasini ijobiy hal etish, o'qitish jarayonini hamkorlikda ishlash texnikasi asosida tashkil etish va didaktik vositalarni qo'llash kabi zamon talablari asosidagi yangicha yondashuvni vujudga keltirdi.

Xo'sh, hamkorlikda ishlash texnikasi va didaktik vositalar tushunchalarining mazmun-mohiyatini ochib beraylik. Hamkorlikda ishlash texnikasi borasidagi g'oyalar dastlab, 1987-yilda Minnesot universiteti professorlari – R. Jonson va D. Jonsonlar, 1988-yilda Koliforniya universiteti professori – Sh.Sharon va 1990-yilda Amerikadagi J. Xopkins universiteti professori – R.Slavinlar tomonidan qo'llanilgan.

Hamkorlikda ishlash texnikasi borasidagi g'oyalar didaktikada 1970-yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda ishlash texnologiyasi Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil kabi

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni. 2018-yil 5-sentabr.

mamlakatlar ta'lim tizimida keng qo'llanila boshlagan. Hamkorlikda ishlash texnikasining xususiyatlari borasida Amerika olimlar hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanish asosidagi o'qitishda, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi degan g'oyalarni ilgari surgan bo'lsalar, Isroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi hamda munozaralar tashkil etish asosida o'qitishni nazarda tutadi, degan fikrlarni ilgari surib kelmoqdalar. Bu har ikki qarash zamirida bitta mohiyat mujassam, ya'ni qanday shakl va usul yoki tartibda bo'lishidan qat'iy nazar o'qituvchi hamkorlikda ishlash texnikasi asosida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutuvchi fikr ilgari surilgan. Bu g'oyalar mazmun jihatdan bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan bir-birini boyitadi.

Hamkorlikda ishlash texnikasida o'quvchilar nafaqat o'quv topshiriqlarini birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish-o'rganishdir. Bunda o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi shklida amalga oshiriladigan o'qitish jarayonidir. Interfaol usullar asosida tashkil etilayotgan noan'anaviy (interaktiv) darslarda o'quvchi va o'qituvchilar hamkorlikda faoliyat yuritadilar. Pedagogika fanida bunday o'qitish usuli hamkorlikda o'qitish texnologiyasi ham deb nomlanadi.

Hamkorlikda ishlash texnikasi, o'qituvchiga dars jarayonini to'liq nazorat qilish imkonini beradigan, pedagog asosiy boshqaruvchi sifatida namoyon bo'ladigan avtoritar texnologiyadan tubdan farq qiluvchi texnologiyadir. Avtoritar texnologiyada faqat yakka shaxs tomonidan tashkil etiladigan va uning irodasiga mos fikr doirasida boshqariladigan dars jarayonidir.

Bugungi kunda ta'limda qo'llanilayotgan interfaol metodlar, guruhlarda ishlash asosida tashkil etilayotgan ta'lim, aynan, hamkorlikda ishlash texnikasi asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayon hisoblanadi va bu didaktik vositalar bilan bevosita bog'liqliqdir.

Xo'sh, didaktik vositalar nima? U qanday tarkibiy qismlardan iborat? Va Didaktik vositalarning o'qitish samaradorligiga ta'siri qanday? Didaktik vositalar qanday tayyorlanadi va o'qituvchi uchun qanday imkoniyatlar beradi?,-degan savollarga javob berishni lozim topdik.

Didaktika (ta'lim nazariyasi: yunoncha "didaktikos" - "o'rgatuvchi",

“didasko” esa – “o’rganuvchi” ma’nosini bildiradi) ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o’qituvchi va o’quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakli, usuli, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari va hokazo muammolar)nio’rganuvchi fan sifatida e’tirof etilgan. Bu so’z fanga 1613-yili Germaniyada nemis pedagogi Wolfgang Ratke tomonidan kiritildi.

Didaktika pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi va bilish nazariyasi bilan aloqadorlikda rivojlanadigan hamda o’zining bor imkoniyatlari bilan ta’lim-tarbiyaga oid masalalarni yuksaltirishga yo’naltirishga qaratilgan, ta’lim, ta’lim jarayoni, ta’lim tamoyillari, ta’lim metodlari, ta’lim shakllari, ta’lim vositalari, bilim, ko’nikma, malaka, o’qitish, o’qishkabididaktikaning asosiy tushunchalarini qamrab oluvchi pedagogik jarayon bo’lib o’quvchi va o’qituvchilarning shakllanish jarayonidir.

Didaktik jarayonlarning samaradorligi didaktik materiallar bilan bog’liq. Shunday ekan, “Didaktik materiallar deganda nimani tushunasiz?”,- degan savolga javob topish uchun yana Pedagogika ensiklopediyaga murojaat qilamiz: “Didaktik material – o’quvchilarga bilim va ta’lim-tarbiya berishga mo’ljallab tanlangan maxsus o’quv materiallari”,-deb takidlanadi.²

Didaktik vositalar - bizga tanish, hayotimizda uchraydigan, hatto biz foydalanib yurgan vositalar bo’lishi mumkin. Ya’ni ularning hammasi ham aynan ta’lim berish uchun ishlab chiqarilgan vosita bo’lishi shart emas. Shu jihatdan olganda didaktik vositalardan foydalanishni o’rganish osonroq. Faqat qo’llanilayotgan vositaning didaktik imkoniyatlarini aniqlab olish zarur.

Didaktik jarayonning natijadorligini taminlash didaktik materiallar va uning tarkibiy elementlari bilan bog’liq. Yuqorida aytib o’tganimizdek, biror bir ishni sifatli va samarali amalga oshirishimiz uchun biz albatta tegishli vositalardan foydalanamiz. Jumladan, fanni o’qitish jarayonida zarur bo’lgan jihozlar, tarqatma materiallar, kompiyuter vositalari, modellar, maketlar, ko’rgazmalar, texnik vositalar, asbob-uskunalar kabilar didaktik vositalar majmuini tashkil etadi.

²Педагогика энциклопедия. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашрети, 2015. I-жилд. 271–бет.

O'qitishda didaktik materiallar va didaktik vositalardan foydalanish muayyan usullarni talab etadi va bu usullar o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Mazkur xususiyatlarning o'ziga xosligi shundaki, ular:

-o'quvchilarning topshiriqlar ustida mustaqil ishlashga undash;

-o'quvchilarning o'qitish va dars jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;

-o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ijodiy yondashuv hissini kuchaytirish;

-o'qituvchi-pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatini muntazam tashkil etish kabilardan iboratdir.

2. Hamkorlikda ishlash texnikasining afzalliklari va o'ziga xos jihatlari.

Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti o'z navbatida ta'lim tizimiga ham ijobiy ta'sir etmoqda. Jumladan, so'ngi vaqtlarda bot-bot takrorlanayotgan, ta'lim tizimiga innovatsion texnologiya va interfaol usullarning joriy etilayotganligini alohida qayd etish lozim. Interaktiv darslarni tashkil etish va interfaol metodlardan foydalanish asosida dars jarayonlarini tashkil etishda o'qituvchi-pedagoglar muayyan talablarga e'tibor berishlari lozim. Mazkur talablardan biri, ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishga harakat qilishlari lozim. Interfaol usullar asosida tashkil etilayotgan noan'anaviy (interaktiv) darslarda o'quvchi va o'qituvchilar hamkorlikda faoliyat yuritadilar. Pedagogika fanida bunday o'qitish usuli hamkorlikda o'qitish texnologiyasi ham deb nomlanadi.

Hamkorlikda ishlash texnikasining afzalliklari va o'ziga xos jihatlari borasida pedagogika tarixiga oid adabiyotlarda turli ta'riflar va izohlarni uchratishimiz mazkur tushuncha yoki jarayonning keng qamrovli ekanligidan dalolatdir. Jumladan, novator-pedagoglar (Sh.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, I.P.Volkov, V.F.Shatalov, E.N.Ilin va boshqalar) hamkorlikda ishlash texnikasiga asoslangan pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlari tashkil etishini ta'kidlab o'tadilar. Hamkorlikda ishlash texnikasi uchun konseptual ahamiyatga ega g'oyalar A.Avloniy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodjerslarning pedagogic qarashlarida ham uchratishimiz mumkin.

Hamkorlikda ishlash texnikasi asosida tashkil etilgan dars

ishtirokchilari, yani sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro kuchli aloqa asosida tashkil etiladigan, muammoning yechimlari va uning sabablarini aniqlash jarayonida ishtirokchilarning hamkorligi asosida hal etiladigan pedagogik jarayondir. Mazkur texnologiya muayyan bir shaxsning ustunligi emas balki ta'lim jarayoni ishtirokchilarining tengligi va o'zaro hamfikirliligi, sog'lom raqobat muhitining yaratilganligi hamda do'stona aloqalar o'rnatilgan, bir so'z bilan aytganda, ularning irodasi va maqsadlariga mos holda tashkil etiladigan pedagogik jarayon, desak mubolag'a bo'lmaydi.

“O'qituvchi-o'quvchi” munosabatlaridagi hamkorlik, bu faoliyatning borishi va natijalarining birgalikdagi tahlili, ma'naviy dunyoda bir-biriga samimiylik, o'zaro bir-birini mustahkam tushunish, o'qituvchi-o'quvchi hamkorlikdagi faoliyat asosida ishlashni talab etadigan pedagogik jarayon hisoblanadi. An'naviy ta'lim pedagogik jarayonda o'qituvchining sub'ekt sifatida, o'quvchini esa ob'ekt sifatida ishtirokiga asoslangan. Bu qoida o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'ekti haqidagi tasavvur bilan almashinadi. “O'quvchi-o'quvchi” munosabatlari hamkorlikning turli shakllari (hamkorlik, birga qatnashish, birga qayg'urish, birga ijod qilish, birgalikda boshqarish)da qabul qilingan umumiy jamoa hayotiy faoliyatida amalga oshadi.

Hamkorlikda ishlash texnikasi asosida tashkil etilgan darslarda, o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari, o'z fikrlarini erkin bayon qilish va mustaqil faoliyat ko'rsatishlari hamda ijodiy tafakkur qilish imkoniyatini yaratib beradigan pedagogik jarayondir. Hamkorlikda ishlash texnikasiga asoslangan ta'limdan farqli ravishda avtoritar texnologiyaga asoslangan ta'limda bunday imkoniyatlar bir qadar cheklanganligi va darslarda muayyan bir shaxsning ustunligi asosidagi tashkil etiladigan o'qitish jarayondir.

Hamkorlikda ishlash texnikasi asosida tashkil etilgan dars ishtirokchilari yani sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro kuchli aloqa asosida tashkil etiladigan, muammoning yechimlari va uning sabablarini aniqlash jarayonida ishtirokchilarning hamkorligi asosida hal etiladigan pedagogik jarayondir. Mazkur texnologiya muayyan bir shaxsning ustunligi emas balki ta'lim jarayoni ishtirokchilarining tengligi va o'zaro hamfikirliligi, sog'lom raqobat muhitining yaratilganligi hamda do'stona aloqalar o'rnatilgan, bir so'z bilan aytganda, ularning irodasi va maqsadlariga mos holda tashkil etiladigan pedagogik jarayon, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Interfaol usullarni o'quv jarayonida qo'llash, hamkorlikda va ijodkorlikda tashkil etishni taqozo etadi. Bunda, o'quv jarayoni markazida o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lishi talab etiladi. Ya'ni, o'qitishda interfaol usullarni qo'llash yoki o'quvchilarni guruhlariga bo'lib ishlash jarayoni bevosita o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi shaklidagi hamkorlikda amalga oshiriladigan jarayon ekanligi, pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Darhaqiqat yuqoridagi mulohazalarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, hamkorlikda ishlash texnologiyasi o'quvchi shaxsiga qaratilgan ta'lim samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Hamkorlik texnologiyasi, o'qituvchiga dars jarayonini to'liq nazorat qilish imkonini beradigan, pedagog asosiy boshqaruvchi sifatida namoyon bo'ladigan avtoritar avtoritar o'qitish shaklidan tubdan farq qiladi.

Hamkorlik o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda, o'quvchilar mustaqil fikrlashlari, o'z fikrlarini erkin bayon qilish va o'quv mustaqil faoliyat ko'rsatishlari hamda ijodiy tafakkur qilish imkoniyatini yaratib beradigan pedagogik jarayon bo'lib, avtoritar texnologiyaga asoslangan ta'limda bunday imkoniyatlar bir qadar cheklangan va darslarda muayyan bir shaxsning ustunligi asosidagi pedagogik jarayondir.

Hamkorlikda ishlash texnikasi asosidagi ta'limdagi har bir o'quvchining muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam berishga zamin tayyorlaydi.

3. Hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanishda didaktik vositalarni tayyorlash tartiblari.

Didaktik vositalar o'qitish jarayonida muhim o'rin tutadi. Didaktik vositalar darslarni tashkil etish va uning sifat-samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi-pedagoglarning eng yaqin yordamchisi hisoblanadi. Hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanish asosida tashkil etilayot darslar uchun didaktik vositalar tayyorlashda o'qituvchi-pedagoglar muayyan talablarga amal qilishlari talab etiladi. Bular quyidagilar:

- didaktik vositalar, nazariy mashg'ulotlarda o'quvchilarga yangi bilimlarni berish va mavzuga doir o'quv materiallarini tushuntirish, namoyish qilish, tahlil qilish imkonini beradigan;

- didaktik vositalar, amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarda mavzuga


doir malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar, savollar, topshiriqlarni bajarishda qo'llashda murakkablik tug'dirmaydigan;

- didaktik vositalar, nazorat mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilimlarini baholash imkonini beradigan testlar va nazorat ishlarida foydalanish uchun mo'ljallangan;


- didaktik vositalar, sinf va sinifdan tashqari mashg'ulotlarda ham qo'llash imkonini beradigan talablar asosida tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagog-olimlar didaktik vositalarni klassifikatsiyasini uch yo'nalishga ajratib ko'rsatadilar. Bular didaktik materiallar, ulardan foydalanish uchun qo'llaniladigan didaktik vositalari, hamda didaktik materiallar va vositalar yordamida ta'limni amalga oshirish uchun loyihalangan majmualar. Har bir yo'nalish bo'yicha ularning tegishli turlari bor.

Didaktik vositalarning klassifikatsiyasi.



Biz mashg'ulot davomida mavzuga oid ma'lumotlarni berishda turli didaktik materiallardan foydalanamiz. Ushbu materiallardan bevosita yoki vositalar yordamida foydalanishimiz mumkin. Avvalo biz didaktik materiallarning bevosita qo'llaniladigan oddiy turlari bilan tanishib chiqamiz. Bunday didaktik materiallar qanday maqsadda qo'llanilishiga qarab bir necha turlardan iborat bo'ladi.



Hamkorlikda ishlash texnikasining o'ziga xos jihatlari, ya'ni dars mashg'ulotlarida didaktik vositalardan foydalanishda muayyan tartiblarga rioya etishni talab qiladi. Nazariy mashg'ulotlarda o'quvchilarga yangi bilimlar beriladi va beriladigan materiallar barcha uchun umumiy hisoblanadi. Bunda ko'rgazmali va videomateriallardan keng foydalaniladi. Mashg'ulot uchun didaktik materiallar tayyorlanayotgan vaqtda biz mavjud didaktik vositalarni, sinflarning jihozlanganligini, namoyish qilishga ajratiladigan vaqtni, axborotlar takrorlanmasligi va oddiydan murakkabiga qarab joylashtirilishini hisobga olishimiz kerak.

Amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarning olgan bilimlari mustahkamlanadi. Shuning uchun bu mashg'ulotlarda qo'llaniladigan materiallar o'quvchilar bilan individual yoki kichik guruhlariga bo'lib ishlashga qaratilgan. Bunda o'quvchilar olgan nazariy bilimlariga tayanib misol va masalalar, topshiriq va mashqlarni bajaradilar. Seminar mashg'ulotlarida esa bahs-munozara yuritadilar. Shuning uchun seminar

mashg'ulotlarida nazariy mashg'ulotlardan farqli ravishda qo'llaniladigan didaktik vositalar asosan o'quvchilarning faoliyatlariga qaratilgan bo'lishi kerak. Buning uchun turli sxema va chizmalar, kartochka va axborot byuletenlari, uslubiy ko'rsatma va darsliklarning ananaviy va elektron variantlaridan foydalanadilar. Bundan tashqari turli foto, televizion yoki video materiallardan ham keng foydalanish mumkin.

Ayrim fanlar bo'yicha mashg'ulotlarda o'quvchilarga kasbga doir malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Bu mashg'ulotlar laboratoriya va ustaxonalarda olib boriladi. Laboratoriya mashg'uloti maxsus jihozlangan xonalarda olib boriladi, aks holda quyilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. O'quvchilar olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash uchun sinash, o'lchash, tekshirish, aniqlash, xosil kilish, natija olish kabi ishlarni laboratoriyada bajarib ko'radilar. Buning uchun zarur shart-sharoit, maxsus jihozlangan xona va kerakli laboratoriya asbob-uskunalaridan foydalaniladi. Bu mashg'ulot uchun o'qituvchi didaktik vositalar majmuasini shunday ishlab chiqishi kerak-ki, natijada har bir o'quvchi maqsadga erishishi kerak.

Nazorat ishlari o'quv maqsadlariga erishilganligini baholashini e'tiborga olsak, u o'quv jarayonida asosiy o'rinni tutadi. Nazorat ishlari qanday nazorat amalga oshirilishiga qarab turlicha ko'rinishda bo'ladi. Bular amaliy mashg'ulot davomida olib boriladigan nazoratlar yoki aynan nazorat amalga oshirilishi uchun belgilangan mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. Mashg'ulot davomida nazorat olib borilganda o'quvchining bilimi joriy baholanadi, ya'ni uning bevosita mashg'ulotda ishtiroki, bajargan ishi baholanadi. Bunda asosan tarqatma materiallar, laboratoriya jiholari va shunga o'xshash o'quvchi faoliyatiga mo'ljallangan didaktik vositalar qo'llaniladi. O'quvchining fanni o'zlashtirishiga doir nazariy bilimlarini baholash uchun esa nazorat mashg'uloti belgilanadi. Nazoratlarni qanday ko'rinishda amalga oshirishimizga qarab didaktik vositalar tarqatma materiallardan testlar, audio va video vositalardan foydalanib tegishli ko'rinishdagi savolar, komp'yuterlar yordamida amalga oshiriladigan test dasturlari bo'lishi mumkin.

Ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri bu ta'limga oid tadbirlarni tashkil etishdir. Bu tadbirlardan ba'zilarini sanab o'tsak: turli fanlar bo'yicha olimpiadalar, o'zlashtirish monitoringi, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va rag'batlantirish, ilmiy-amaliy anjumanlar

o'tkazish, turli tanlovlar tashkil qilishdan iborat. Bu ishlarni amaga oshirish uchun tashkiliy ishlar muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchilar tadbirning rejasini ishlab chiqayotganlarida qanaqa didaktik vosita va materiallardan foydalanishlarini hisobga olishlari kerak. Mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib tadbir senariysi asosida didaktik majmua tuzishlari yaxshi samara beradi. Asosan tadbir o'tkaziladigan xonaning didaktik majmua sifatida jihozlanishi ko'zda tutiladi. Bunda informatsion texnologiyalar asosida tayyorlangan didaktik materiallar, turli audio va videomateriallar, telekommunikatsiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quv yurtida yoshlar komil inson bo'lib yetishishlari uchun ularga bilim berish, hunar o'rgatish bilan birgalikda ular bilan doimiy tarbiyaviy ishlar ham olib boriladi. Har bir o'quv mashg'ulotining tarbiyaviy maqsadidan tashqari alohida tarbiyaviy tadbirlar ham amalga oshiriladi. Bu ishlarda ham didaktik materiallar va vositalar o'qituvchilarga katta yordam beradi.

Ta'lim tizimida didaktik vositalar va interfaol usullardan foydalanish o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi. O'qituvchi-pedagoglar didaktik vositalarni tayyorlashda muayyani talablarga amal qilishlari lozim. Bular quyidagilardir:

birinchidan, Didaktik vositalarning o'ziga xosligi va turlichadir;

ikkinchidan, Didaktik vositalarni ishlab chiqish va tayyorlashga qo'yiladigan talablar to'laligicha o'qituvchi-pedagoglar tomonidan anglab yetilishi;

uchinchidan, Didaktik vositalar o'quv-tarbiya jarayoniga mos kelishi;

to'rtinchidan, Didaktik vositalarni tayyorlashda sinf yoki auditoriyaning yosh xususiyatlar kabilarni hisobga olish talab etiladi.

XULOSA

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish va interfaol usullarni qo'llash keyingi vaqtda o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarilib bormoqda, desak muolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, o'qituvchi-pedagoglar tomonidan o'qitish jarayoning sifat-samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan o'quvchilarni guruhlarga bo'lib ishlash metodikasining ahamiyatili jihatlari borasidagi fikr-mulohazalari pedagogik adabiyotlarda tez-tez e'tirof etilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi-pedagoglar tomonidan o'qitish jarayonlariga interfaol usullar qo'llash yoki o'quvchilarni guruhlarga bo'lib ishlash asosida tashkil etilayotgan darslar hamkorlikda ishlash bilan bog'liq pedagogik jarayon hisoblanadi.

Hamkorlikda ishlash texnikasi asosida tashkil etilgan o'qitish jarayonining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarda biri didaktik vositalarni tayyorlash va didaktik materiallardan unumli foydalanishdir. Didaktik vositalar o'qituvchi tomonidan – o'quvchilarga bilim va ta'lim-tarbiya berishga mo'ljallab tanlangan maxsus o'quv vositalaridir. Didaktik vositalar nafaqat o'qituvchi tomonidan tanlanadi, balki o'qituvchining o'zi tayyorlashi ham mumkin. Masalan, mavzuga oid tarqatma materiallar, maketlar, ko'rgazmalar, texnik vositalar, asbob-uskunalar kabi didaktik vositalar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarimizdan kelib chiqib xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanishda didaktik vositalarni tayyorlash, o'quvchilarni aqliy mehnatga, mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, har bir o'quvchini intellektual salohiyatini oshirish, ularning o'z kuch va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, o'qitish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashish hissini shakllantirishga, o'quv mashg'ulotlarida, hayotiy muammolarni hal etishda hamkorlikda faoliyat yuritishga o'rgatishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. T., O'zbekiston, 2017-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T., O'zbekiston, 2018-y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. T., O'zbekiston, 2019-y.
4. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi.T., Xalq so'zi gazetasi, 2020-yil 25-yanvar № 19 (7521).

II. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston, 2019-y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni//Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T., "Sharq" nashriyot matbaa konserni, 1997-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi// Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T., "Sharq" nashriyot matbaa konserni, 1997-y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Pedagogika ensiklopediya. I-jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 2015-y.
2. Pedagogik ensiklopediya. II-jild. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 2015-y.
3. M.Aminov, T. Daminov va boshqalar. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 4 kitob, 2002-y.
4. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma). — T.: «Nihol nashryoti», 2013-y.
5. Sh.M.Masharipova. Ta'lim texnologiyalari. Ilmiy-uslubiy jurnal. № 5, 2015-y.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi

vazirligi sayti.

2. <http://www.president.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.

3. <http://www.giu.uz> – Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

4. <http://www.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

5. <http://www.xs.uz>– “Xalq so‘zi” gazetasi sayti.

MUNDARIJA

Kirish	3
Hamkorlikda ishlash texnikasi va didaktik vositalar tushunchasining mazmun-mohiyati.....	5
Hamkorlikda ishlash texnikasining afzalliklari va o'ziga xos jihatlari.....	9
Hamkorlikda ishlash texnikasidan foydalanishda didaktik vositalarni tayyorlash tartiblari.....	12
Xulosa.....	17
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	18

ORIPOV JAMSHID YAXSHIBOYEVICH

**HAMKORLIKDA ISHLASH TEXNIKASIDAN FOYDALANISHDA
DIDAKTIK VOSITALARNI TAYYORLASH**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 10.01.2021 y.
Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y
Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.
«Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.
1,25 bosma taboq Adadi: 50 nusxa. Buyurtma №21/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.

